

**O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.12.2021.P.26.02 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**KUSHANOVA MASHXURA ISAKOVNA**

**O‘SMIRLARDA AGRESSIV XULQ-ATVOR NAMOYON BO‘LISHINING  
IJTIMOIY PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

**19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya**

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Psixologiya fanlari falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора  
философии (PhD) по психологическим наукам**

**Content of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD)  
on Psychological Sciences**

**Kushanova Mashxura Isakovna**

О‘smirlarda agressiv xulq-atvor namoyon bo‘lishining ijtimoiy psixologik xususiyatlari..... 3

**Кушанова Машхура Исаковна**

Социально-психологические особенности проявления агрессивного поведения у подростков..... 25

**Kushanova Mashkhura Isakovna**

Socio-psychological features of aggressive behavior in adolescents..... 47

**E‘lon qilingan ilmiy ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of publications ..... 51

**O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.12.2021.P.26.02 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**KUSHANOVA MASHXURA ISAKOVNA**

**O‘SMIRLARDA AGRESSIV XULQ-ATVOR NAMOYON BO‘LISHINING  
IJTIMOIY PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

**19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya**

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/P997 raqami bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Samarqand davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([psi-ik@uz](mailto:psi-ik@uz)) va «ZiyoNet» axborot-ta’lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Saidov Azamat Ismoilovich**

psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

**Rasmiy opponenlar:**

**Umarov Baxriddin Mengboyevich**

psixologiya fanlari doktori, professor

**Rajabova Feruza Pozilovna**

psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Buxoro davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2021.P.26.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_\_ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27. Tel.: (+99871) 276-82-32; faks: (+99871) 276-76-51; e-mail: [tdpu\\_kengash@edu.uz](mailto:tdpu_kengash@edu.uz)).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston milliy pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (\_\_\_\_\_ raqam bilan ro‘yxatga olingan.) (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27. Tel.: (+99871) 276-82-32).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2025-yil «\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi).

**F.A. Akramova**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,  
psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

**N.B. Atabayeva**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi,  
psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

**Z.T. Nishanova**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
qoshidagi Ilmiy seminar raisi,  
psixologiya fanlari doktori, professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda inson hayoti va xulq-atvorida yuzaga keladigan muammolarni shakllanish qonuniyatlarini psixologik tahlil qilish, muammoli vaziyatlarda oqilona yechim topish, zarur psixologik chora-tadbirlarni belgilab, ilmiy asosda qarorlar qabul qilishga yo'naltirilgan tadqiqotlarga alohida ahamiyat berilmoqda. «Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh Assambleyasida qabul qilingan Bolalar huquqlari to'g'risidagi Deklaratsiya»da «bolalarga jismoniy va ma'naviy rivojlanishi uchun barcha sharoitlar yaratib berilishi», «gunoh qilgan bola to'g'ri yo'lga solinishi», «og'ir damlarda bola mehr ko'rib voyaga yetishi va himoya qilinishi»<sup>1</sup> tamoyillari qayd etilgan. Bu borada, dunyo miqyosida bolalar va o'smirlar agressiv xulq-atvorining ijtimoiy psixologik xususiyatlarini o'rganishga qaratilgan tadqiqotlar dolzarb muammolardan bo'lib qolmoqda.

Jahon oliy ta'lim muassasalari va ilmiy-amaliy markazlarida o'smirlar agressiv xulq-atvori muammosiga tadqiqot yo'nalishi sifatida alohida e'tibor qaratilmoqda. Ilmiy tadqiqotlarda agressiv xulq-atvorning biologik, ijtimoiy, ijtimoiy-psixologik omillari hamda agressiv xulq-atvoriga xos xususiyatlari o'rganilmoqda. O'smirlardagi agressiv xulq-atvorni kelib chiqish omillarini ifodalovchi ijtimoiy-psixologik mexanizmlarini aniqlash, ular xulqidagi buzilishlar, agressivlik, jizzakilik, hissiy beqarorlik holatlarni bartaraf etishning turli uslublarini ishlab chiqish dolzarb muammo sifatida qaraladi. O'smirlarning agressiv xulq-atvorini bartaraf etishda ularning gender tafovutlari, ijtimoiy yetuklik darajalari, individual-psixologik xususiyatlari asosidagi yondashuvlar va korreksion dasturlarni ishlab chiqishga ehtiyoj ortib bormoqda. O'smirlarning ijtimoiy muhitga shaxs sifatida shakllanishi, kelajakda o'z shaxsiy hayotini konstruktiv yo'nalishda barpo etishi muammosining dolzarb bo'lib, uni alohida tadqiqot predmeti sifatida o'rganish zarurati yuzaga keladi.

Yangi O'zbekistonda so'nggi yillarda yoshlarning jamiyatda o'z o'rnini topishiga yordam berish hamda axloqiy ko'nikmalar shakllantirilishining psixologik mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan islohotlarning asosiy yo'nalishlari aniqlanib, zaruriy huquqiy-me'yoriy asoslar yaratildi: «Yoshlarimiz ongiga salbiy ta'sir etuvchi, ularni g'oyaviy jihatdan qaram etishga yo'naltirilgan harakatlarga qarshi samarali kurash olib borish, irodali, fidoyi, vatanparvar va o'z mustaqil fikriga ega avlodni tarbiyalash bo'yicha amaliy chora-tadbirlar dasturlarini ishlab chiqish»<sup>2</sup>, «.....ularni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg'usi, bag'rikenglik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta'sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo'lgan qat'iy ishonch va qarashlarga ega shaxs sifatida tarbiyalash»<sup>3</sup> vazifalari belgilangan. Shu boisdan, mazkur mavzuni tadqiq etish nafaqat ilmiy-nazariy, balki amaliy jihatdan ham muhim bo'lib, o'smirlarning jamiyatda o'z o'rnini topishiga yordam berishi bilan muhim masalalardan hisoblanadi.

2023-yil 1-maydagi O'RQ-837-son «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida» Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi

---

<sup>1</sup> Резолюция 1386 (XIV) Генеральной Ассамблеи ООН от 20 ноября 1959 года. [http://www.un.org/ru/documents/ods.asp?m=A/RES/1386\(XIV\)](http://www.un.org/ru/documents/ods.asp?m=A/RES/1386(XIV))

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi PQ-5040 son «Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 26.03.2021-y., 07/21/5040/0243-son.

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022 y., 06/22/60/0082-son.

PF-158-son «O‘zbekiston – 2030» Strategiyasi to‘g‘risida», 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida», 2021-yil 13-iyuldagi PF-6260-son «Yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va ularning ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» Farmonlari, 2017-yil 14-martdagi PQ-2833-sonli «Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida», 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son «Yoshlarni ma‘naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta‘lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida», 2021-yil 26-martdagi PQ-5040 son «Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» Qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 7-iyundagi 472-son «Psixologiya sohasida kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va jamiyatda huquqbuzarliklarning oldini olish chora-tadbirlari to‘g‘risida» Qarorlari va boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan keng ko‘lamli strategik chora-tadbirlarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari» ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** O‘zbekiston psixolog olimlaridan G.A.Abduqahhorova, R.O.Begmatov, N.M.Dalimova, Z.S.Elov, F.F.Ganjiyev, V.M.Karimova, N.G‘.Kamilova, D.E.Mirzabdullayeva, Z.T.Nishanova, L.A.Nigmatulina, D.Sh.Norqo‘ziyeva, G.A.Qarshiboyeva, O.S.Qodirov, F.F.Rasulova, R.S.Samarov, T.G.Suleymanova, G.Q.To‘laganova, B.M.Umarov, E.G‘.G‘oziyev, G‘.B.Shoumarov va boshqalar izlanishlarida asosiy e‘tibor deviant xulq-atvor, xarakter aksentuatsiyasi, oilaviy munosabatlarda namoyon bo‘luvchi agressiv xulq, agressiv xulqni o‘rganishning psixologik shart-sharoitlari, bolalar va o‘smirlar suitsidi, o‘z-o‘ziga baho berish va nazorat qilish, o‘smir yoshdagi o‘quvchilarda verbal turdagi tajovuzkorlik, kompyuter o‘yinlarining o‘smirda tajovuzkor xulq-atvor shakllanishiga ta‘siri, o‘smirlarda jinoyat motivlari shakllanishining psixodiagnostikasi va psixokorreksiyasi kabi qator muhim masalalarga qaratilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari psixolog olimlaridan Yu.M.Antonyan, G.Breslav, Yu.B.Gippenreyter, I.A.Kudryavsev, V.G.Leontev, Yu.B.Mojginskiy, A.A.Rean, L.M.Semenyuk, T.P.Smironova, T.M.Trapeznikova, Ye.A.Cheprakova, A.A.Shavirina va boshqalar agressiv xulq-atvor shakllanishiga oila va oilaviy munosabatlarning ta‘siri, hissiy buzilishlar, xulqi og‘ishganlik, agressiv xulq-atvorning korreksiyasi, guruhda turli yosh va jinsdagi shaxslar agressiv xulqining o‘ziga xosligi, bolalar va o‘smirlardagi agressiv xulq-atvorning rivojlanishiga OAVning ta‘siri, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar agressiv xulqining o‘ziga xosligi, aggressiya profilaktikasi va korreksiyasi, yosh mutaxassislarining ma‘naviy kamolotiga ta‘sir etuvchi omillar kabi muammolarni tadqiq etishgan.

Xorij psixolog olimlaridan A.Bandura, O.Barnett, A.Bass, L.Berkowitz, R.Beron, D.Brayant, J.Dollard, J.Kagan, B.Krayxi, K.Lorens, L.Cindy, D.Ridchardson va boshqalar agressivlik fenomeni va uning tabiati, jinoiy xulq va uning mohiyati, zo‘ravonlik va agressiv deviant xulq-atvorning o‘zaro aloqasi, ota-ona tarbiyasining bolalardagi agressivlikning paydo bo‘lishiga ta‘siri, o‘smirlardagi agressiv xulq-atvorning jamiyatda o‘z o‘rnini

anglashdagi o'rni, ongni manipulyatsiya qilish, agressiv xulq-atvorga undashda ommaviy axborot vositalarining ta'siri, agressiya hodisasi mohiyati, bolalar va o'smirlarda agressiya va agressiv xulq-atvor shakllanishining sabablari bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borishgan.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Psixologiya kafedrasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining SPS-01 raqam bilan ro'yxatga olingan «XXI asr psixologiyasida shaxs intellektual taraqqiyoti konsepsiyasi» mavzusi doirasida bajarilgan (2021-2025 y.y).

**Tadqiqotning maqsadi** o'smirlarda agressiv xulq-atvor namoyon bo'lishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini aniqlash hamda o'smirlar agressiv xulqi profilaktikasini takomillashtirishga oid tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

o'smirlardagi agressiv xulq-atvorni namoyon bo'lishida ijtimoiy-hududiy omillar ta'sirini aniqlash;

o'smirlarda agressiv xulq-atvorni namoyon bo'lishining yosh xususiyatlariga bog'liqligini asoslash;

o'smirlardagi agressiv xulq-atvor darajasining differensial farqlarini dalillash;

o'smirlarda agressiv xulq-atvorni pasaytirish modelini takomillashtirish.

**Tadqiqotning ob'yekti** sifatida o'smirlar agressiv xulq-atvorining ijtimoiy psixologik xususiyatlarini o'rganish jarayoni tanlangan bo'lib, tadqiqotda Samarqand shahridagi 45, 63-sonli umumiy o'rta ta'lim maktablaridan (202 nafar o'quvchi va 115 nafar ota-onalar), Qarshi shahridagi 10, 41-umumiy o'rta ta'lim maktablaridan (182 nafar o'quvchi va 104 nafar ota-onalar) tadqiqotga jalb etildi. Tadqiqot respondentlarining umumiy soni 603 nafarni tashkil etdi, ularning 384 nafari o'smir yoshidagi o'quvchilar va 219 nafar ulaning ota-onalari.

**Tadqiqotning predmetini** o'smirlar agressiv xulq-atvorining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari tashkil etadi.

**Tadqiqotning metodlari.** Tadqiqotda kuzatish, suhbat metodlari, shuningdek, R.V.Ovcharovanning «Ota-onaning farzandga munosabatini o'rganish» anketasi, A.Bass va A.Darkilarning «Agressiya shakllari va ko'rsatkichlari diagnostikasi» metodikasi, Ye.P.Ilin va P.A.Kovalevlarning «Agressiv xulq-atvor» so'rovnomasi, P.A.Kovalevning «Shaxsga oid agressivlik va ziddiyatlilik» so'rovnomasi, hammualliflikdagi «O'smirlarning agressiv xulq-atvorini baholash» (A.Saidov, M.Kushanovalar) savolnomasidan foydalanildi. Olingan natijalarning statistik ishonchliligini tasdiqlash uchun SPSS 27 dasturi orqali Studentning t-mezoni va K. Pirsonning r-korrelyatsiya koeffitsiyentini qo'llash orqali tasdiqlandi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

o'smirlardagi agressiv xulq-atvorni namoyon bo'lishida ijtimoiy munosabatlardagi shaxsning guruhda "o'z mavqeini mustahkamlashga" intilish jismoniy, verbal, bilvosita agressiya darajasi agressivlik indeksini, negativizm, xafagarchilik, shubhalanuvchanlik dushmanlik indeksi darajasini kuchayishiga olib kelganligi tufayli ijtimoiy-hududiy omillar muhim ahamiyatga ega ekanligi dalillangan;

o'smirlardagi agressivlik jismoniy, verbal agressiya, jahldorlik, qasoskorlik, o'zgarlar fikriga taqotsizlik orqali agressivlik indeksini, negativizm, bilvosita agressiya, sergumonlik, xafagarchilik, yon bermaslik orqali dushmanlik indeksini kuchaytirganligi tufayli shaxslararo munosabatlarda ziddiyatlilikning namoyon bo'lishiga olib kelishi yoshga oid xususiyatlarga

bogʻlab asoslab berilgan;

oʻsmirlardagi agressiv xulq-atvor darajasi shaxslararo munosabatlarda jizzakilik, oʻzgalarning fikrlariga sabrsizlik, sergumonlik, oʻzaro munosabatlardagi murosasizlikning yosh xususiyatlariga bogʻliq holda namoyon boʻlishiga asoslanib, “xulq-atvor va his-tuygʻular”, “oʻz-oʻzini anglash va boshqarish”, “ijtimoiy munosabatlar” kontekstida differensiallashtirilgan;

oʻsmirlardagi agressivlikni korreksiyalash modeli ijtimoiy (shaxslararo) intellekt darajasini rivojlantirish orqali kognitiv (jamiyat normalarini tushunish va ularga rioya qilish), emotsional (emotsional oʻzini boshqarish mexanizmlari) va konativ (oʻzgalar bilan ijobiy munosabatlarga kirishish) mexanizmlarini oʻz ichiga olishi isbotlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

oʻsmirlar agressiv xulq-atvori hamda shaxs xususiyatlarini oʻrganishga oid psixodiagnostik metodika va soʻrovnomalar amaliyotda qoʻllanilgan;

oʻsmirlarda agressiv xulq-atvorni keltirib chiqaruvchi ijtimoiy-psixologik omillar aniqlanib, psixokorreksiyaviy mashgʻulotlar yordamida agressiv xulq-atvorni yengib oʻtishga yoʻnaltirilgan psixoprofilaktik tadbirlar uchun uslubiy ishlanmalar takomillashtirilgan va aprobatsiya qilingan;

oʻsmirlardagi agressiv xulq-atvorni korreksiya qilish imkonini beruvchi ijtimoiy psixologik trening dasturi ilmiy asoslangan, amaliyotda sinovdan oʻtkazilgan hamda umumtaʼlim muassasalari amaliyotiga tatbiq etilishi tavsiya etilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchligi.** Tadqiqotda qoʻllanilgan metodlarning ilmiy jihatdan asoslanganligi, tanlov guruhining reprezentativligi, empirik natijalarning matematik-statistika usullari yordamida tahlil qilinganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilganligi, tadqiqotda olingan empirik materiallarni qayta ishlash va ularning statistik ahamiyatlilik darajasini aniqlash uchun matematik-statistikaning Pirsonning korrelyatsiya mezonini va Styudent t-mezonidan foydalanilganligi, statistik maʼlumotlarga ishlov berishda «Microsoft Office Excel» hamda «SPSS Statistics ver. 27.0» dasturlarida amalga oshirilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati oʻsmirlarda agressiv xulq-atvorni profilaktika qilishga qaratilgan nazariy-metodologik jihatlar yangi maʼlumotlar bilan boyitilganligi, empirik-eksperimental baholash mezonlari belgilanganligi, ilmiy xulosalardan pedagogik psixologiya, ijtimoiy psixologiya, eksperimental psixologiya, psixodiagnostika, pedagogika yoʻnalishidagi tadqiqotlarda foydalanilish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati empirik tadqiqot natijalariga asoslangan holda ishlab chiqilgan psixologik tavsiyalardan «Yosh va pedagogik psixologiya», «Ijtimoiy psixologik trening», «Psixologik xizmat», «Psixodiagnostika» kabi fan sohalarini mazmunan boyitishda, nazariy va amaliy ishlanmalardan maʼruza va amaliy mashgʻulotlarni oʻtkazishda, psixologik amaliyotda psixokorreksiyaviy tadbirlarni amalga oshirishda qoʻllash mumkinligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Oʻsmirlarda agressiv xulq-atvor namoyon boʻlishining ijtimoiy psixologik xususiyatlari boʻyicha dissertatsiya tadqiqoti natijalari asosida:

oʻsmirlardagi agressiv xulq-atvorni namoyon boʻlishida ijtimoiy munosabatlardagi shaxsning guruhda “oʻz mavqeini mustahkamlashga” intilish jismoniy, verbal, bilvosita

agressiya darajasi agressivlik indeksini, negativizm, xafagarchilik, shubhalanuvchanlik dushmanlik indeksi darajasini kuchayishiga olib kelganligi tufayli ijtimoiy-hududiy omillar muhim ahamiyatga ega ekanligi dalillanganligiga oid ma'lumotlar O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 7-dekabrda PM 290-son buyrug'iga asosan «Ijtimoiy psixologiya» moduli mazmuniga singdirilgan (O'zMPU huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 10-dekabrda PM 290a-son ma'lumotnomasi). Natijada psixologlarning o'smirlar bilan ishlashda individual yondashuv kompetensiyalarini oshirishga erishilgan;

o'smirlardagi agressivlik jismoniy, verbal agressiya, jahldorlik, qasoskorlik, o'zgal fikriga taqotsizlik orqali agressivlik indeksini, negativizm, bilvosita agressiya, sergumonlik, xafagarchilik, yon bermaslik orqali dushmanlik indeksini kuchaytirganligi tufayli shaxslararo munosabatlarda ziddiyatlilikning namoyon bo'lishiga olib kelishi yoshga oid xususiyatlarga bog'lab asoslab berilganligiga doir ma'lumotlar O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 7-dekabrda PM 290-son buyrug'iga asosan «Ijtimoiy psixologiya» moduli mazmuniga singdirilgan (O'zMPU huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 10-dekabrda PM 290a-son ma'lumotnomasi). Natijada psixologlarning psixokorreksion ishlarini olib borishga oid bilimlarini rivojlantirishga erishilgan;

o'smirlardagi agressiv xulq-atvor darajasi shaxslararo munosabatlarda jizzakilik, o'zgalarning fikrlariga sabrsizlik, sergumonlik, o'zaro munosabatlardagi murosasizlikning yosh xususiyatlariga bog'liq holda namoyon bo'lishiga asoslanib, "xulq-atvor va his-tuyg'ular", "o'z-o'zini anglash va boshqarish", "ijtimoiy munosabatlar" kontekstida differentsiallashtirilganligiga oid ma'lumotlar O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 7-dekabrda PM 290-son buyrug'iga asosan «Ijtimoiy psixologiya» moduli mazmuniga singdirilgan (O'zMPU huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 10-dekabrda PM 290a-son ma'lumotnomasi). Natijada agressiv xulq-atvorni profilaktika qilishga yo'naltirilgan uslubiy ishlar takomillashtirilgan;

o'smirlardagi agressivlikni korreksiyalash modeli ijtimoiy (shaxslararo) intellekt darajasini rivojlantirish orqali kognitiv (jamiyat normalarini tushunish va ularga rioya qilish), emotsional (emotsional o'zini boshqarish mexanizmlari) va konativ (o'zgal bilan ijobiy munosabatlarga kirishish) mexanizmlarini o'z ichiga olishiga oid ma'lumotlar O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 7-dekabrda PM 290-son buyrug'iga asosan «Ijtimoiy psixologiya» moduli mazmuniga singdirilgan (O'zMPU huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 10-dekabrda PM 290a-son ma'lumotnomasi). Natijada psixologlarning agressiv xulq-atvorli o'smirlar bilan ishlash ko'nikmalarini takomillashtirishga erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Tadqiqotning asosiy natijalari bo'yicha jami 15 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi OAK tavsiya etgan jurnallarda 9 ta maqola, jumladan 3 tasi xorij jurnallarida chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 152 sahifani tashkil qiladi.

## DISSERTATSIYASINING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi yoritilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari belgilangan, qo'llanilgan metodlar, tadqiqot ob'ekti hamda predmeti aniqlashtirilgan, ilmiy ishning O'zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotda olingan natijalarning ilmiy yangiligi, ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, ularning amaliyotda tadbiq etilishi, ilmiy nashrlarda e'lon qilinishi, dissertatsion ishning tuzilishi yuzasidan ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**O'smirlar agressiv xulq-atvorini psixologik o'rganishning nazariy-metodologik asoslari**» deb nomlangan birinchi bobida agressiv xulq-atvor konseptining ijtimoiy psixologik tavsifi, agressiv xulq-atvor muammosining xorij va mamlakatimizda tadqiq etilishi hamda o'smirlar agressiv xulq-atvorining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari tahlil qilingan.

Ushbu bobda agressiya, agressiv xulq-atvor muammosi bilan ilmiy izlanishlar olib borgan olimlar hamda tadqiqotchilarning tadqiqot ishlari tahlil qilingan bo'lib, agressiya tushunchasiga berilgan turlicha ta'riflar, yondashuvlar, nazariyalar o'rganilgan. Jumladan, O'zbekistonda psixolog olimlar (G.A.Abduqahhorova, R.O.Begmatov, N.M.Dalimova, N.G'.Kamilova, V.M.Karimova, O.S.Qodirov, Z.T.Nishonva, F.Rasulova, R.S.Samarov, T.G.Suleymanova, G.Q.To'laganova, B.M.Umarov, G'.B.Shoumarov) tomonidan olib borilgan izlanishlarda asosiy e'tibor deviant xulq-atvor, xarakter aksentuatsiyasi, oilaviy munosabatlarda namoyon bo'luvchi agressiv xulq, agressiv xulqni o'rganishning psixologik shart-sharoitlari, bolalar va o'smirlar suitsidi, o'z-o'ziga baho berish va nazorat qilish, o'smir yoshdagi o'quvchilarda verbal turdagi tajovuzkorlik, kompyuter o'yinlarining o'smirda tajovuzkor xulq-atvor shakllanishiga ta'siri kabi qator muhim masalalarga qaratilgan bo'lsa, MDH olimlari (Y.M.Antonyan, G.Breslav, Y.B.Gippenreyter, I.A.Kudryavsev, V.G.Leontev, Y.B.Mojginskiy, A.A.Rean, L.M.Semenyuk, T.P.Smironova, T.M.Trapeznikova, Y.A.Cheprakova, A.A.Shavirina) tomonidan olib borilgan izlanishlarda esa, agressiv xulq-atvor shakllanishiga oila va oilaviy munosabatlarning ta'siri, hissiy buzilishlar, xulqi og'ishganlik, agressiv xulq-atvorning korreksiyasi, guruhda turli yosh va jinsdagi shaxslar agressiv xulqining o'ziga xosligi, bolalar va o'smirlardagi agressiv xulq-atvorning rivojlanishiga OAVning ta'siri, agressiya profilaktikasi va korreksiyasi kabi muammolar tadqiq etilgan. Bundan tashqari xorij tadqiqotchilari (A.Bandura, O.Barnett, A.Bass, L.Berkovits, R.Beron, D.Brayant, J.Dollard, J.Kagan, B.Krayxi, K.Lorens, S.L.Miller-Perrin, D.Ridchardson) tomonidan agressivlik fenomeni va uning tabiati, jinoiy xulq va uning mohiyati, zo'ravonlik va agressiv deviant xulq-atvorning o'zaro aloqasi, ota-ona tarbiyasining bolalardagi agressivlikning paydo bo'lishiga ta'siri, o'smirlardagi agressiv xulq-atvorning jamiyatda o'z o'rnini anglashdagi o'rni, ongni manipulyatsiya qilish, agressiv xulq-atvorga undashda ommaviy axborot vositalarining ta'siri, agressiya hodisasi mohiyati, bolalar va o'smirlarda agressiya va agressiv xulq-atvor shakllanishining sabablari bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borishgani nazariy jihatdan asoslangan.

Dissertatsiyaning «**O'smirlar agressiv xulq-atvorini empirik o'rganish natijalari**» deb nomlangan ikkinchi bobida o'smirlar agressiv xulq-atvorining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini empirik o'rganish tavsifi hamda o'smirlarda agressiv xulq-atvorning namoyon bo'lishi tahlili yoritilgan.

Empirik tadqiqot doirasida psixodiagnostik metodikalar yordamida o‘smirlar agressiv xulq-atvoriga sabab bo‘luvchi oilaviy munosabat turini R.V.Ovcharovning «Ota-onaning farzandga munosabatini o‘rganish» anketasi; agressiya holatini A.Bass va A.Darkining «Agressiya shakllari va ko‘rsatkichlari diagnostikasi» metodikasi; agressiv xulq-atvoriga moyillik darajasini Ye.P.Ilin va P.A.Kovalevlarning «Agressiv xulq-atvor» so‘rovnomasi; agressivlikning xarakter xususiyatlari sifatida namoyon bo‘lishini P.A.Kovalevning «Shaxsga oid agressivlik va ziddiyatlilik» so‘rovnomasi hamda A.Saidov va M.Kushanovalarning «O‘smirlarning agressiv xulq-atvorini baholash» savolnomasi yordamida tadqiq etildi.

Ilmiy tadqiqot doirasidagi eksperimental tadqiqot ishlari uch bosqichda olib borilib, birinchi (aniqlashtiruvchi) bosqichda – o‘quvchilardan iborat tanlov guruhi (n-384) asosida hudud bo‘yicha (202 nafar Samarqand shahri, 182 nafar Qarshi shahri), gender farqlar bo‘yicha (192 nafar qizlar va 192 nafar o‘g‘il bolalar) guruhlarini shakllantirilib, psixodiagnostik metodikalar yordamida respondentlarni o‘rganish hamda to‘plangan empirik ma’lumotlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik (yoki farqlanish) darajasining korrelyatsiyali (Pirson mezoni) tahlili hamda o‘rtacha ko‘rsatkichlar qiymatidagi farqlarni aniqlash (Styudent mezoni) amalga oshirildi. Empirik tadqiqot natijasida olingan ma’lumotlar asosida tanlov guruhi (n-384) tajriba (n-107) va nazorat (n-277) guruhiga ajratib olindi. Tajriba guruhi agressiyaga moyilligi yuqori va juda yuqori bo‘lgan o‘smirlar tarkibidan shakllantirildi. O‘smirlarda agressiv xulq-atvor shakllanishiga oilaviy munosabatning ta’sirini o‘rganish maqsadida 219 nafar ota-onalar jalb qilindi;

ikkinchi (shakllantiruvchi-rivojlantiruvchi) bosqichda – tajriba guruhi (n-107) tarkibiga kirgan o‘quvchilar bilan ishlab chiqilgan «O‘smirlar agressiv xulq-atvori psixokorreksiyasi» mualliflik dasturida belgilangan tadbirlar amalga oshirildi;

uchinchi (nazorat) bosqichda – psixokorreksion dasturning samaradorligini matematik statistika metodlari asosida aniqlash (isbotlash) amalga oshirildi. Bunda agressiv xulq-atvorning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o‘rganish, natijalarni qiyoslash asosida tajriba (n-107) va nazorat (n-277) guruhlarining dastlabki hamda yakuniy holatdagi ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik (yoki farqlanish) darajasining tahlili amalga oshirildi.

1-jadvalda R.V.Ovcharovning «Ota-onaning farzandga munosabatini o‘rganish» anketasi yordamida olingan natijalar keltirilgan.

**1-jadval**

**O‘smirlar va ota-onalar ijtimoiy munosabatining umumiy ko‘rsatkichi (n-219)**

Oila tipi	Ota-onalar	
	Soni	foizi
A tip - farzandlari bilan bo‘ladigan munosabatda o‘z farzandiga unchalik ishonmaydigan avtoritar ota-ona	46	21,0
B tip - o‘smirning shaxsiy tajribaga, xatolarga bo‘lgan huquqini tushunadigan, tan oladigan ota-ona	143	65,3
C tip - o‘smirni tushunishga harakat qilmaydigan, tarbiya usuli bu – tanbeh berish va jazolash hisoblaydigan ota-ona	30	13,7
<b>Jami</b>	<b>219</b>	<b>100</b>

Jadvaldan ko‘rinadiki, tadqiqotda qatnashgan respondentlarning 46 nafari (21%) farzandlari bilan bo‘ladigan munosabatda o‘z farzandiga unchalik ishonmaydigan avtoritar ota-onaning bir turi bo‘lib, bunday ota-onalar farzandining ehtiyojlarini deyarli tushunmaydigan A tipli oila sifatida, 143 nafari (65,3%) o‘smirning shaxsiy tajribaga, hatto

xatolarga bo'lgan huquqini tushunadigan, tan oladigan va uni o'zi hamda xatti-harakatlari uchun javobgar bo'lishga o'rgatishga harakat qiladigan B tipli oila sifatida, 30 nafari (13,7%) o'smirni tushunishga harakat qilmaydi, tarbiya usuli bu – tanbeh berish va jazolash hisoblanadigan C tipli oila sifatida namoyon bo'lgan.

Demak, agar ota-onalar va oilaning katta yoshli a'zolari o'smirning imkoniyatlari hamda ehtiyojlarini hisobga olib, unga hurmat va ishonch bilan munosabatda bo'lishsa, unga o'qish va boshqa faoliyatidagi muammo va qiyinchiliklarni yengishga, do'stlar, tengqurlari bilan munosabatlarni o'rnatishga yordam berib, u bilan aloqada bo'lishsa, o'smir shaxsini rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratgan bo'ladilar. Aksincha, farzandiga ishonchsizlik bilan qaraydigan, uning ehtiyojlarini deyarli tushunmay munosabatda bo'ladigan, turli faoliyatlarida muvaffaqiyatsizliklari uchun doimiy tanbeh berib, xatolari uchun jazolaydigan avtoritar ota-onalarning xatti-harakati natijasida o'smirlarda agressiv xulq-atvorning kelib chiqishiga sabab bo'lishi mumkin.

Olingan natijalar asosiligi hamda ishonchliligini tasdiqlash maqsadida tanlov (n-384) guruhining aniqlangan ko'rsatkichlari o'zaro aloqadorligi Pirsonning korrelyatsiyali tahlil mezonini asosida ko'rib chiqildi (2-jadvalga qarang).

## 2-jadval

### A.Bass, A.Darkilarning «Agressiya shakllari va ko'rsatkichlari diagnostikasi» va Ye.P.Ilin, P.A.Kovalevlarining «Agressiv xulq-atvor» metodikalari o'rtasidagi korrelyatsion bog'lanishlar (n-384)

Agressiya shakllari	Agressiv xulq-atvor				
	To'g'ri verbal agressiya	Bilvosita verbal agressiya	To'g'ri jismoniy agressiya	Bilvosita jismoniy agressiya	O'zini tuta olmaslik darajasi
Jismoniy agressiya	0,393**	0,323**	0,469**	0,266**	0,470**
Bilvosita agressiya	0,437**	0,349**	0,263**	0,446**	0,480**
Jizzakilik	0,458**	0,387**	0,287**	0,354**	0,458**
Negativizm	0,393**	0,275**	0,313**	0,278**	0,410**
Xafagarchilik	0,236**	0,216**	0,071	0,246**	0,231**
Shubhalanuvchanlik	0,086*	0,131**	0,005	0,132**	0,094*
Verbal agressiya	0,503**	0,347**	0,421**	0,343**	0,528**
Aybdorlik hissi	0,033	0,056	-,092*	-0,048	-0,046
Agressivlik	0,563**	0,432**	0,491**	0,448**	0,627**
Dushmanlik	0,201**	0,211**	0,050	0,232**	0,202**

Izoh: \* –  $p \leq 0,05$ ; \*\* –  $p \leq 0,01$ .

Tadqiqot natijalariga ko'ra, o'smir yoshdagi bolalarda agressiya shakllari bilan agressiv xulq-atvor o'rtasidagi o'zaro bog'lanishlarning ko'rsatishicha, o'smirlardagi agressiv xulq-atvorga tegishli bo'lgan «to'g'ri verbal agressiya» ulardagi agressiya shakllaridan hisoblangan «jismoniy agressiya» ( $r=0,393$ ,  $p \leq 0,01$ ), «bilvosita agressiya» ( $r=0,437$ ,  $p \leq 0,01$ ), «jizzakilik» ( $r=0,458$ ,  $p \leq 0,01$ ), «negativizm» ( $r=0,393$ ,  $p \leq 0,01$ ), «xafagarchilik» ( $r=0,236$ ,  $p \leq 0,01$ ), «shubhalanuvchanlik» ( $r=0,086$ ,  $p \leq 0,05$ ), verbal agressiya ( $r=0,503$ ,  $p \leq 0,01$ ), «agressivlik» ( $r=0,563$ ,  $p \leq 0,01$ ), «dushmanlik» ( $r=0,201$ ,  $p \leq 0,01$ ) shkalalari bilan o'zaro musbat korrelyatsiyani tashkil qilmoqda. Bundan shuni aniqlashimiz mumkinki, o'smir yoshdagi bolalarda o'zining atrofidagi insonlar bilan bo'ladigan munosabatda agressiya shakllari kuzatilsa, ya'ni bola boshqa insonlarga nisbatan jismoniy kuch ishlatsa, tan jarohati yetkazsa yoki zo'ravonlik qilish holatlari yuzaga kelsa,

bundan tashqari soʻz orqali agressiyaning ifodalanishi kuzatilsa, yaʼni bola atrofdagilar bilan munosabatda ular bilan tez-tez janjal chiqarsa, oʻzini tuta olmasa, haqoratimiz soʻzlar ishlatishi, soʻkinishi, gʻiybat, mish-mish tarqatish holatlari tez-tez kuzatiladigan boʻlsa unda bu toifadagi oʻsmirlarda albatta keyinchalik «toʻgʻri verbal agressiya» agressiv xulq atvor sifatida shakllanadi va uning shaxslararo munosabatlarida aks eta boshlaydi. Oʻsmirlik davrida, bolalar ayniqsa arazchi va jahldor boʻlib qolishlarini eʼtiborga olsak, ularning xohishiga mos boʻlmagan har qanday stimul agressiv reaksiyaga sabab boʻladi.

Metodikaning «bilvosita verbal agressiya» xulq-atvor shkalasi agressiya shakllaridan «jismoniy agressiya» ( $r=0,323$ ,  $p\leq 0,01$ ), «bilvosita agressiya» ( $r=0,349$ ,  $p\leq 0,01$ ), «jizzakilik» ( $r=0,387$ ,  $p\leq 0,01$ ), «negativizm» ( $r=0,275$ ,  $p\leq 0,01$ ), «xafagarchilik» ( $r=0,216$ ,  $p\leq 0,01$ ), «shubhalanuvchanlik» ( $r=0,131$ ,  $p\leq 0,01$ ), verbal agressiya ( $r=0,347$ ,  $p\leq 0,01$ ), «agressivlik» ( $r=0,432$ ,  $p\leq 0,01$ ), «dushmanlik» ( $r=0,211$ ,  $p\leq 0,01$ ) shkalalari bilan oʻzaro musbat aloqadorlikni koʻrsatmoqda. Ushbu musbat korrelyatsiyadan shuni aniqlashimiz munkinki, oʻsmirlarda koʻzga tashlanadigan agressiya shakllari yaʼni jismoniy agressiya, jizzakilik, negativizm, xafagarchilik, shubhalanuvchanlik, agressivlik, dushmanlik holatlarining doimiy ifodalanishi ularning xulq-atvorida «bilvosita verbal agressiya» shakllanishiga hamda bu uning atrofdagilar bilan oʻzaro salbiy munosabatiga sabab boʻlar ekan. Bunday toifadagi insonlar keyinchalik ham oʻz atrofidagi kishilar haqida turli mish-mishlar, gʻiybatlar tarqatish, oʻzga insonlarni ortidan gapirib yurishga harakat qilar ekan. Oʻsmirning his-tuygʻulari kuchli ekanligi va boshqarilishi qiyinligi bilan ajralib turadi, ular yaqqol namoyon boʻluvchi taʼsirchanligi bilan xarakterlanadi. Bu esa oʻz navbatida oʻz-oʻzini nazorat qilishning sustligi, hissiy va shaxsiy sohani oʻzboshimchalik bilan tartibga solish bilan bogʻliq boʻlib, agressiyani keltirib chiqaradi.

Soʻrovnomaning navbatdagi agressiv xulq-atvor shkalasi «toʻgʻri jismoniy agressiya» agressiya shakllaridan «jismoniy agressiya» ( $r=0,469$ ,  $p\leq 0,01$ ), «bilvosita agressiya» ( $r=0,263$ ,  $p\leq 0,01$ ), «jizzakilik» ( $r=0,287$ ,  $p\leq 0,01$ ), «negativizm» ( $r=0,313$ ,  $p\leq 0,01$ ), verbal agressiya ( $r=0,421$ ,  $p\leq 0,01$ ), «agressivlik» ( $r=0,491$ ,  $p\leq 0,01$ ) shkalalari bilan oʻzaro musbat korrelyatsiyani koʻrsatmoqda. Bu esa bolalarda kuzatiladigan agressiv shakllar, yaʼni atrofdagilarga nisbatan jismoniy kuch ishlatish, jizzakilik, qoʻpollik qilish, jahлга berilish, soʻkinish holatlari bolaning rivojlanib borishi jarayonida tez-tez takrorlanadigan boʻlsa, bu holat asta-sekinlik bilan uning xulq-atvorida «toʻgʻri jismoniy agressiya» sifatida shakllanib boradi hamda buning taʼsirida bolada keyinchalik ulgʻayganidan soʻng ham boshqalarga nisbatan jismoniy kuch ishlatish, qoʻpollik qilish holatlari xulq-atvorida saqlanib qoladi. Biroq, tadqiqot jarayonida agressiya shakllaridan «aybdorlik hissi» agressiv xulq-atvor shkalasi boʻlgan «toʻgʻri jismoniy agressiya» ( $r=-0,092$ ,  $p\leq 0,05$ ) bilan oʻzaro manfiy aloqadorlikni koʻrsatmoqda, bundan shunday xulosa qilishimiz mumkinki shaxsda aybdorlik hissi mavjud boʻlganda u koʻproq oʻzini aybdor his qilganligi, ilgari qilgan ishidan pushaymonligi, afsuslanayotganligi bois, atrofdagilarga nisbatan jismoniy kuch ishlatishni hohlamaydi va buning oʻrniga unda oʻz xatosini toʻgʻrilash istagi paydo boʻladi.

Metodikaning «bilvosita jismoniy agressiya» shkalasi esa agressiya shakllaridan boʻlgan «jismoniy agressiya» ( $r=0,266$ ,  $p\leq 0,01$ ), «bilvosita agressiya» ( $r=0,446$ ,  $p\leq 0,01$ ), «jizzakilik» ( $r=0,354$ ,  $p\leq 0,01$ ), «negativizm» ( $r=0,278$ ,  $p\leq 0,01$ ), «xafagarchilik» ( $r=0,246$ ,  $p\leq 0,01$ ), «shubhalanuvchanlik» ( $r=0,132$ ,  $p\leq 0,01$ ), verbal agressiya ( $r=0,343$ ,  $p\leq 0,01$ ), «agressivlik» ( $r=0,448$ ,  $p\leq 0,01$ ), «dushmanlik» ( $r=0,232$ ,  $p\leq 0,01$ ) shkalalari bilan oʻzaro musbat aloqalarni koʻrsatmoqda. Bu esa xuddi yuqorida taʼkidlaganimizdek bolalarda

kuzatiladigan jismoniy agressiya, bilvosita agressiya, jizzakilik, qo‘pollik holatlari, negativizm, har narsaga xafa bo‘lish, har narsadan shubhalanish, turli qo‘pol so‘zlarni ishlatish holatlarining tez-tez qaytarilishi ularning xulq-atvorida «bilvosita jismoniy agressiya»ni shakllanishiga sabab bo‘lar ekan. Bizningcha, o‘smirlarning agressiv xulq-atvori ushbu rivojlanish davridagi bolalarning yosh xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘lgan «voyaga yetish hissi»ni paydo bo‘lishi, organizmni qayta qurilishidagi (fiziologik, gormonal va psixologik xarakterdagi) o‘zgarishlar bilan belgilanadi.

3-jadvalda hammualliflikdagi «O‘smirlarning agressiv xulq-atvorini baholash» (A.Saidov, M.Kushanovalar) savolnomasi va A.Bass, A.Darkilarning «Agressiya shakllari va ko‘rsatkichlari diagnostikasi» metodikasi o‘rtasidagi korrelyatsion bog‘lanish keltirilgan.

### 3-jadval.

**«O‘smirlarning agressiv xulq-atvorini baholash» savolnomasi hamda A.Bass va A.Darkilarning «Agressiya shakllari va ko‘rsatkichlari diagnostikasi» metodikalariaro korrelyatsion bog‘lanishlar (n=384)**

Agressiya shakllari	Omillar		
	Xulq-atvor va his-tuyg‘ular	O‘z-o‘zini anglash va boshqarish	Ijtimoiy munosabatlar
Jismoniy agressiya	-0,34*	0,15	0,21
Bilvosita agressiya	0,19	0,17	0,19
Jizzakilik	0,18	0,18	0,19
Negativizm	0,13	0,12	0,17
Xafagarchilik	0,12	-0,37*	0,18
Shubhalanuvchanlik	0,19	0,15	0,18
Verbal agressiya	0,14	0,16	0,19
Aybdorlik hissi	0,16	0,14	-0,39*

Izoh: \* –  $p \leq 0,05$ ; \*\* –  $p \leq 0,01$ .

«O‘smirlarning agressiv xulq-atvorini baholash» savolnomasi hamda A.Bass va A.Darkilarning «Agressiya shakllari va ko‘rsatkichlari diagnostikasi» metodikasi o‘rtasidagi korrelyatsion bog‘lanishlarga ko‘ra, «xulq-atvor va his-tuyg‘ular» omili «jismoniy agressiya» ( $r=-0,34$ ;  $p \leq 0,05$ ) omili bilan salbiy, «o‘z-o‘zini anglash va boshqarish» omili «xafagarchilik» ( $r=-0,37$ ;  $p \leq 0,05$ ) omili bilan salbiy, «ijtimoiy munosabatlar» omili «aybdorlik hissi» ( $r=-0,39$ ;  $p \leq 0,05$ ) omili bilan salbiy aloqadorlikni hosil qildi. Tadqiqot ishimizdagi «xulq-atvor va his-tuyg‘ular» omili va «jismoniy agressiya» omili o‘rtasida korrelyatsion bog‘lanish qayd etildi ( $r=-0,34$ ;  $p \leq 0,05$ ). Mazkur salbiy bog‘lanishga ko‘ra, xulq-atvor va his-tuyg‘ular omili bilan jismoniy agressiya o‘rtasidagi salbiy bog‘lanish shuni ko‘rsatadiki, o‘smirlarda o‘z his-tuyg‘ularini boshqarishda qiyinchilikka duch kelsa, ularning tajovuzkor xulq-atvori jismoniy shaklda ifodalanishi, o‘z his-tuyg‘ularini ochiqchasiga ifodalashda ko‘proq kuch ishlatishga moyilligi dalillandi. Shuningdek, ularda o‘z his-tuyg‘ularini boshqarish qobiliyatining pastligi tajovuzni kuchaytiradi va bunday tajovuz ko‘pincha jismoniy zo‘ravonlik orqali namoyon bo‘ladi. Shuningdek, bu ijtimoiy muhitdagi o‘smirlarning o‘zini tutishiga ham ta’sir qiladi, chunki o‘z his-tuyg‘ularini boshqara olmagan o‘smirlar boshqa shaxslar bilan agressiv muloqotga kirishishlari mumkin. Jismoniy agressiya ko‘pincha muammolarni hal qilishda kuch ishlatish orqali amalga oshiriladi va bu, o‘z navbatida, o‘smirlarning ijtimoiy munosabatlarini murakkablashtiradi.

«O‘z-o‘zini anglash va boshqarish» omili bilan «Xafagarchilik» omili o‘rtasida salbiy korrelyatsion bog‘lanish aniqlandi ( $r=-0,37$ ;  $p\leq 0,05$ ). Bu shundan dalolat beradiki, o‘smirlarning o‘z his-tuyg‘ularini tushunish va boshqarish qobiliyatining pastligi, o‘zini to‘g‘ri anglay olmaganda yoki his-tuyg‘ularini boshqarishda qiyinchiliklarga duch kelganda xafagarchilikni tezroq his qilishlari mumkinligi dalillandi. Xafagarchilik – bu tajovuzkorlikning bir ko‘rinishi bo‘lib, o‘smirlar ko‘pincha o‘zlarini e‘tiborsiz yoki adolatsiz his qilganda paydo bo‘ladi. O‘z-o‘zini boshqara olmagan o‘smirlar bu hissiyot bilan to‘g‘ri kurasha olmay, natijada, ular xafagarchilikni agressiv xatti-harakatlar orqali ifodalashlari mumkin.

«Ijtimoiy munosabatlar» omili va «Aybdorlik hissi» omili salbiy korrelyatsiyaga kirishdi ( $r=-0,39$ ;  $p\leq 0,05$ ). Ijtimoiy munosabatlar omili va aybdorlik hissi o‘rtasidagi bog‘lanish ijtimoiy aloqalarning sifati va o‘zini baholash bilan bog‘liq. O‘smirlar o‘z ijtimoiy muhitida salbiy harakatlar sodir etganlarida aybdorlik his qilishlari mumkinligi aniqlandi, bu esa ularning agressiv xulq-atvoriga ham ta‘sir qiladi. Aybdorlik hissi o‘smirlarning o‘z xatti-harakatlarini tushunishlari va ijtimoiy aloqalarning uzilishi bilan bog‘liq. 4 va 5-jadvallarda o‘smirlardagi agressiv xulqning gender va hududlararo ko‘rsatkichlari Student t-mezone asosida natijalari berilgan.

4-jadval

**O‘smirlardagi agressiv xulqning gender farqlari (n-384, qiz-n-192, o‘g‘il-n-192)**

Metodika va shkalalar	Tanlov guruhi				Student t-mezone
	qiz		o‘g‘il		
	(M)	(σ)	(M)	(σ)	
<b>«Agressiya shakllari va ko‘rsatkichlari diagnostikasi»</b>					
Jismoniy agressiya	46,0	22,2	56,4	18,7	-4,918***
Bilvosita agressiya	45,1	19,9	41,6	20,5	1,694
Jizzakilik	47,5	18,3	47,3	18,2	0,076
Negativizm	45,7	27,4	50,2	26,7	-1,622
Xafagarchilik	60,4	21,0	57,0	22,8	1,514
Shubhalanuvchanlik	58,1	19,4	54,1	17,9	2,081*
Verbal agressiya	51,6	19,7	47,1	16,8	-1,872*
Aybdorlik hissi	74,8	16,0	73,0	18,8	1,030
Agressivlik	46,3	17,1	49,7	13,8	-2,185*
Dushmanlik	59,2	16,7	55,6	17,0	2,123*
<b>«Agressiv xulq-atvor» so‘rovnomasi</b>					
To‘g‘ri verbal agressiya	4,3	2,2	4,3	2,0	-0,024
Bilvosita verbal agressiya	3,3	2,3	3,2	2,1	0,465
To‘g‘ri jismoniy agressiya	3,6	2,2	4,6	2,1	-4,616***
Bilvosita jismoniy agressiya	3,2	2,3	3,7	2,2	-2,094*
O‘zini tuta olmaslik darajasi	11,1	5,5	12,6	4,8	-2,822*
<b>«Shaxsiyatga oid agressivlik va ziddiyatlilik» so‘rovnomasi</b>					
Jahldorlik	5,2	2,1	4,8	1,8	1,918
Qasoskorlik	4,8	1,9	4,9	1,6	-0,584
O‘zgalar fikriga toqatsizlik	4,6	1,8	4,6	1,7	-0,319
Sergumonlik	5,0	1,8	5,0	1,7	-0,464
Xafagarchilik	5,0	1,9	5,1	1,8	-0,249
Yon bermaslikka moyillik	4,0	1,9	4,5	1,8	-2,608**
Murosasizlik	5,5	1,9	5,6	1,6	-0,577
Hujum qilishga moyillik	4,5	1,8	5,1	1,6	-3,544***
Ziddiyat	20,7	4,7	20,6	3,8	0,346
Negativ agressiya	9,4	3,1	9,5	2,6	-0,547
Ijoiy agressiya	8,6	3,1	9,7	2,8	-3,670***

Izoh: \* –  $p \leq 0,05$ ; \*\* –  $p \leq 0,01$ ; \*\*\* –  $p \leq 0,001$ .

Tadqiqotda «Agressiya shakllari va ko'rsatkichlari diagnostikasi» metodikasi asosida olingan natijalar o'smirlardagi agressiv xulqning gender farqlari quyidagicha namoyon bo'ldi. Agressiya shakllaridan biri hisoblangan «Jismoniy agressiya» o'g'il bolalarda (56,4) qiz bolalarga (46,0) nisbatan yuqori ko'rsatkichni bermoqda hamda ular o'rtasida ahamiyatli farqlanish ( $t=-4,918$ ;  $p<0,001$ ) mavjudligini ko'rsatmoqda. Xuddi shunday ko'rsatkich agressiya shakllaridan «Agressiya»da ham kuzatildi, ya'ni o'g'il bolalarda (49,7) qiz bolalarga (46,3) nisbatan yuqori ko'rsatkich ko'zga tashlandi va bu ko'rsatkichlar o'rtasida ahamiyatli farqlanish ( $t=-2,185$ ;  $p<0,05$ ) mavjud. Aksincha agressiya shakllaridan «Verbal agressiya» qiz bolalarda (51,6) o'g'il bolalarga (47,1) nisbatan yuqori ko'rsatkichni bermoqda va ular o'rtasida ahamiyatli farqlanish ( $t=-1,872$ ;  $p<0,05$ ) mavjud, «Shubhalanuvchanlik» esa qiz bolalarda (58,1) o'g'il bolalarda (54,1) natijani bermoqda hamda ular o'rtasida o'zaro korrelyatsion aloqadorlik ( $t=2,081$ ;  $p<0,05$ ) ko'zga tashlanmoqda, «Dushmanlik» ham qiz bolalarda (59,2) o'g'il bolalarga (55,6) nisbatan yuqori va ular o'rtasida o'zaro ahamiyatli bog'lanish ( $t=2,123$ ;  $p<0,05$ ) mavjudligini ko'rsatmoqda. Demak, o'g'il bolalarda jismoniy agressiya, qizlarda ijtimoiy vaziyatga agressiya bog'liq bo'ladi. Tadqiqotdan ko'rinadiki, lider-o'g'il bolalar tengdoshlari tomonidan «kuchli», dominant deb idrok qilinadi va qizlarga nisbatan ko'proq jismoniy agressiyaga moyil ekanliklari e'tirof etiladi. Ko'pincha agressiv o'g'il bolalar uchun o'g'il bolalar jamoasida yuqori mavqega ega bo'lish osonroq kechadi.

Tadqiqotda «Agressiv xulq-atvor» so'rovnomasi metodikasi natijalari tahlil qilinib, o'smirlarda agressiv xulq-atvor shakllanishining gender farqlari ham aniqlandi. Ushbu metodika natijalariga ko'ra «To'g'ri jismoniy agressiya» o'g'il bolalarda (4,6) qiz bolalarga (3,6) nisbatan yuqori ko'rsatkichni bermoqda hamda ushbu ko'rsatkichlar o'rtasida ahamiyatli farqlanish ( $t=-4,616$ ;  $p<0,001$ ) mavjud. «Bilvosita jismoniy agressiya» ham o'g'il bolalar xulq-atvorida (3,7) qiz bolalarga (3,2) nisbatan yuqori ekanligini va ular o'rtasida ahamiyatli farqlanish ( $t=-2,094$ ;  $p<0,05$ ) borligini ko'rishimiz, bundan tashqari ushbu metodikaning «O'zini tuta olmaslik darajasi» shkalasi o'g'il bolalarda (12,6) qiz bolalarga (11,1) nisbatan yuqori ko'rsatkichni bermoqda va bu ko'rsatkichlar o'rtasida ham ahamiyatli farqlanish ( $t=-2,822$ ;  $p<0,05$ ) mavjud. Yuqoridagi ko'rsatkichlar shuni ko'rsatmoqdaki o'smir yoshdagi o'g'il bolalarda jismoniy agressiya, agressiya holatlarining tez-tez qaytarilishi ularning xulq-atvorida to'g'ri jismoniy agressiya, bilvosita jismoniy agressiya, o'zini tuta olmaslik darajalarining shakllanishiga sabab bo'lar ekan. Qiz bolalarda esa boshqalarga jismoniy kuch ishlatish, zo'ravonlik, qo'pollik qilish holatlari kam uchraganligi sababli bu ularning xulq-atvorida jismoniy va bilvosita agressiyaning ham nisbatan pastroq darajasini ko'rsatmoqda. O'g'il bolalar uchun xarakterli bo'lmagan agressiya shakli bu «verbal-jismoniy» bo'lib, to'g'ridan-to'g'ri, ochiq shaklda va nizoli ifodalanishi ular uchun ko'proq xarakterlidir. Qizlar uchun verbal agressiyaning har qanday shakli jumladan to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita shakli xarakterli bo'lsa-da, ularda ko'proq bilvosita shakli kuzatiladi.

«Shaxsga oid agressivlik va ziddiyatlilik» so'rovnomasi yuzasidan tahlillarni amalga oshirganimizda ham o'smir yoshdagi o'g'il bolalar va qizlar o'rtasida bir qator gender farqlar yuzaga kelganligi ma'lum bo'ldi. Olingan natijalarga ko'ra «Yon bermaslikka moyillik» ko'rsatkichi o'g'il bolalarda (4,5) qiz bolalarga (4,0) nisbatan yuqoriroq ko'rsatkichni bermoqda va bu ko'rsatkichlar o'rtasida o'zaro ahamiyatli farqlanish ( $t=-2,608$ ;  $p<0,01$ ) mavjud. Metodikaning navbatdagi shkalasi «Hujum qilishga moyillik» o'g'il bolalarda (5,1) qiz bolalarga (4,5) nisbatan yuqori natijani ko'rsatmoqda hamda bu

ko'rsatkichlar o'rtasida ahamiyatli farqlanish ( $t=-3,544$ ;  $p<0,001$ ) borligini, «Ijobiy agressiya» shkalasi natijalari ham o'g'il bolalarda (9,7) qiz bollarga (8,6) nisbatan yuqori ko'rsatkichni berdi va bu ko'rsatkichlar o'rtasida ahamiyatli farqlanish ( $t=-3,670$ ;  $p<0,001$ ) borligini ko'rishimiz mumkin. Ushbu natijalardan shunday xulosaga kelishimiz mumkinki o'smir yoshdagi o'g'il bolalarda hujum qilish istagi, tashabbusni qo'lga kiritish, o'z qarashlari, e'tiqodlari va manfaatlarini faol himoya qilish, raqibning dalillarini hisobga olmasdan, o'z fikrlarida boshqalarni qat'iyat bilan ishontirish, bundan tashqari o'z nuqtai nazarini yoki pozitsiyasini qat'iy talab qilish, shuningdek, boshqalarning fikrini hisobga olmasdan va hech qanday yon bermasdan o'z manfaatlarini himoya qilish istagi qiz bolalarga nisbatan sezilarli darajada yuqoriroq ko'rinishda aks etadi.

Yuqorida keltirilgan fikrlar bizga ikkita muhim xulosa chiqarishga imkon beradi. Birinchidan, yoshidan qat'iy nazar, o'g'il bolalarda agressiv xulq-atvorning barcha shakllari qizlarga qaraganda ko'proq namoyon bo'ladi, bu esa ularning agressiyani ochiq, to'g'ridan-to'g'ri namoyon qilishga moyilligini tasdiqlaydi. Ikkinchidan, o'g'il bolalarda jismoniy va verbal agressiya yaqqol namoyon bo'lib, bu ko'pincha to'g'ridan-to'g'ri hamda ochiq shaklda ifodalanadi. Qizlarda aksariyat holda verbal agressiya kuzatilib, u ko'pincha bilvosita shaklda namoyon bo'ladi.

#### 5-jadval

#### O'smirlardagi agressiv xulqning hudud bo'yicha farqlari (n-384, Samarqand-n-202, Qarshi-n-182)

Metodika va shkalalar	Tanlov guruhi				Styudent t-mezi
	Samarqand		Qarshi		
	(M)	(σ)	(M)	(σ)	
«Agressiya shakllari va ko'rsatkichlari diagnostikasi»					
Jismoniy agressiya	52,5	22,8	50,0	19,8	-1,121
Bilvosita agressiya	45,3	19,2	41,2	21,2	2,011*
Jizzakilik	46,8	19,0	48,1	17,3	-0,666
Negativizm	47,6	26,8	48,4	27,6	-0,262
Xafagarchilik	56,0	22,6	61,7	20,9	-2,570*
Shubhalanuvchanlik	54,8	19,2	57,6	18,1	-1,482
Verbal agressiya	50,1	18,8	48,5	17,9	0,858
Aybdorlik hissi	72,7	17,9	75,2	16,9	-1,432
Agressivlik	48,5	14,9	47,4	16,4	0,706
Dushmanlik	55,4	17,4	59,6	16,2	-2,474*
«Agressiv xulq-atvor» so'rovnomasi					
To'g'ri verbal agressiya	4,4	2,1	4,1	2,1	1,341
Bilvosita verbal agressiya	3,5	2,2	3,0	2,1	1,935
To'g'ri jismoniy agressiya	4,3	2,2	4,0	2,2	1,285
Bilvosita jismoniy agressiya	3,7	2,3	3,2	2,2	2,072*
O'zini tuta olmaslik darajasi	12,4	5,3	11,3	5,1	1,976*
«Shaxsga oid agressivlik va ziddiyatlilik» so'rovnomasi					
Jahldorlik	5,0	1,9	5,1	2,0	-0,432
Qasoskorlik	4,9	1,7	4,8	1,8	0,800
O'zgalar fikriga toqatsizlik	4,7	1,8	4,5	1,7	0,843
Sergumonlik	4,9	1,8	5,0	1,7	-0,577
Xafagarchilik	4,9	1,8	5,2	1,9	-1,337
Yon bermaslikka moyillik	4,4	1,8	4,2	1,9	0,967
